

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№1 - SON

2026-YIL, YANVAR

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrizevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazolimovna, i.f.n., SamSI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Djuraev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abdavaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umiddjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Abdavaxidov Behzod xxx, PhD., Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini o'qituvchisi;

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Elektron nashr 730 sahifa. E'lon qilishga 2026-yil 31-yanvarda ruxsat etildi

MUNDARIJA

YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR VA O‘ZINI-O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLAR SEGMENTI UCHUN SHAFFOF RAQAMLI TO‘LOV TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH	8
Isamuxamedov Anvar Sadiqovich	
OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA BARQAROR RAQOBAT USTUNLIKLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	15
Ismailova Nilufar Sabitdjanovna	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH RESURSLARINI STRATEGIK BOSHQARISH	27
Kazakov Olim Sabirovich	
ЭТИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ СБОРА ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ДАННЫХ В МЕЖДУНАРОДНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ.....	35
Адылова Зульфия Джавдатовна, Юлчиева Мадинабону Отабек кизи	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA SIRKULAR IQTISOD TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY DAVLATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARI	48
Nuritdinov Ramziddin	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕФТЕГАЗОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	60
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ НЕРАВЕНСТВО: ПРИЧИНЫ И МЕРЫ ПРЕОДОЛЕНИЯ.....	74
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
IJTIMOYIY-IQTISODIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	83
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
INTELLIGENT INTRUSION DETECTION: LEVERAGING REINFORCEMENT LEARNING FOR ECONOMIC SECURITY AGAINST DDOS THREATS.....	90
Bekov Sanjar Nigmandjanovich	
RAQAMLI MARKETINGNING YOSHLAR SEGMENTIDA RIVOJLANISHI	101
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna, Ergashov Abdullo Ramazon o‘g‘li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA BOZOR AXBOROTLARIDAN FOYDALANISH VA AVTOMATIK TAHLIL QILISH TIZIMLARINI JORIY ETISH	106
Yo‘ldoshev Nodirbek Ne‘matjon o‘g‘li	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING O‘ZGARISH DINAMIKASI TAHLILI.....	114
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
TOWARDS AN INTEGRATIVE MODEL OF THE COUNTRY IMAGE	121
Duschanov Alisher Sherzod ugli	
BUXORO VILOYATIDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI TAHLILI VA MARKETING MUAMMOLARI.....	133
Jumayeva Zamira Bo‘stonovna	

KORXONALARNING YASHIL MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHGA NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUVLARI	140
Sapayev Axmed Durdibayevich	
SANOAT KORXONALARINING UZOQ MUDDATLI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING YONDASHUVLARI.....	149
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
RAQOBAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI VA INSTITUTSIONAL MUAMMOLAR.....	159
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN'S AGRICULTURAL SECTOR.....	167
Amonov Sardor Zamon o'g'li	
EVALUATING RETURN ON MARKETING INVESTMENT IN B2B DISTRIBUTION ...	175
Jamoliddinov Fakhriyor Shodiyor o'g'li	
THE ROLE OF STRATEGIC MANAGEMENT IN ENHANCING TOURISM DESTINATION COMPETITIVENESS.....	184
Choriyev Farrux Xamroyevich	
TUROPERATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	194
Toshev Akmal Salimovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AGRAR BOZOR TAHLILI	206
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
JAHON ZARGARLIK MAHSULOTLARI BOZORIGA KIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI.....	214
Azizova Roxila Baxodir qizi	
FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	223
Qodirov Zohidjon Eralievich	
SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARI SOHASI BARQARORLIGINING HUDUDIY VA DINAMIK TAHLILI.....	229
Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAXSULOTLARI SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	236
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	243
Нуруллаева Шахноза Тохтасиновна, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORIDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY CHAKANA SAVDO TRANSFORMATSIYALARI.....	250
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	257
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHGA XIZMATLAR SOHASINI TA'SIRINI OSHIRISH.....	264
Achilova Furuza Kurbanovna	

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK BILAN BOG‘LIQ XAVF-XATARLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	274
Shamurotov Nodirbek Bakbergan o‘g‘li	
OZIQ-OVQAT SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	280
Hamroyev Bobir Shoyimovich	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL TURIZMNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.....	289
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКЕ	299
Ниязметова Ёқутхон Ботир қизи	
QURILISHDA LOYIHA BOSHQARUVI STRATEGIYASINING ILMIY-USLUBIY MUAMMOLARI	308
Pulatov Shaxron Axmedovich	
QURILISH KORXONALARINING TASHKILY TUZILMALARINING OMILLAR TA‘SIRIDA SHAKILLANISHI	315
Raximova Nilufar Abduazizovna	
O‘ZBEKISTON EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN KORXONALARINING MARKETING KOMPLEKSINI MINTAQALAR BOZORLARIGA MOSLASHTIRISH.....	323
Axmedov Ikrom Akramovich	
MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDA MIJOZ VA BANK MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	338
Temirova Sevara Baxodirovna	
TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR	345
Muminova Durдона Saydikadirovna	
TIJORAT BANKLARI BRENDING STRATEGIYASINING BANK IMIJGA TA‘SIRI ...	355
Mirzajonova Maftunaxon Jaxongir qizi	
УПРАВЛЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯМИ НА РЫНКЕ ТРУДА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ГРАВИТАЦИОННОЙ МОДЕЛИ.....	364
Назаров Дмитрий Михайлович, Джурабаев Отабек Джурабаевич	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARNING MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI	380
Uzakova Umida Ruziyevna	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ НА МАЛЫЙ БИЗНЕС	388
Зокирова Фарангиз	
KIMYO SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA IQTISODIY SALOHİYAT TUSHUNCHASINING AHAMIYATI.....	395
Vaxobov Shohjahn Valiyevich	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI.....	402
Muxiddinov Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li	

KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA TO‘QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	412
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
QURILISH SANOATIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	420
Ortiqxo‘jayeve Yulduz Azatovna	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA RISK-MENEJMENTDAN FOYDALANISHNING USLUBIY JIHLTLARI.....	428
Madaminov Bekzod Allayarovich	
BANK RISK-MENEJMENTI TIZIMIDA SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	442
Madaminov Bekzod Allayarovich	
XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	453
Abduvoxiidov Behzod	
TIKUV – TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA USULLARIDAN FOYDALANISH.....	460
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI	472
Kaxramonov Xurshidjon Shuhrat o‘g‘li	
ADVANCING UZBEKISTAN’S ENERGY SECTOR THROUGH PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: KEY REFORMS, IMPLEMENTED PROJECTS, AND SUSTAINABILITY PROSPECTS.....	481
Juraev Javohir Tulagan ugli	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО ТУРИЗМА В РЕГИОНЕ СО СПОСОБОМ КЛАСТЕРИЗАЦИИ МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ.....	489
Юсупова Мехрибон Уктамовна	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH.....	498
Xushvaqtov Shuhrat Abduraufovich	
FRANCHAYZING SUBYEKTLARI O‘RTASIDAGI KOOPERATSIYANI BAHOLASHNING KO‘P MEZONLI METODIKASINI ISHLAB CHIQRISH VA SAMARADORLIKNI ANIQLASH	509
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISTE‘MOLCHILARNING BRENDGA SODIQLIGI VA UNING KORXONA DAROMADIGA TA‘SIRINI BAHOLASH.....	523
Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Yuldasheva Zuhrajon Urazboy qizi	
STRATEGIK USULLAR ORQALI MENEJMENT SIFATINI UZLUKSIZ TAKOMILLASHTIRISH.....	529
Djabriyev Akbarali Normurodovich, Muxammadiyev O‘tkir Axmedovich, Ravshanbekova Madinabonu	
MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDAGI ROLI VA AHAMIYATI.....	541
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA XODIMLAR BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KPI TIZIMINING AHAMIYATI.....	552
Maksudov Zuxriddin Ziyovitdinovich	

MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING OPTIMAL TUZILMASINI SHAKLLANTIRISH VA MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	561
G‘aymatova Dilafro‘z G‘ofurjonovna	
SANOAT KORXONALARIDA TEJAMKOR ISHLAB CHIQARISH TIZIMI ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	572
Esheva Sarvinoz Axmatovna	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH.....	583
Shuxratullayev Elmurod Dilmurod o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY MENEJMENT KONSEPSIYALARINI QO‘LLASH....	597
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
O‘ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYA VA ASSOTSIATSIYALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	610
Radjabov Umed Farmonkulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI KICHIK BIZNESNING INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	617
Umurzaqov Avazbek Sobirovich	
JAMOAT TRANSPORTI XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA’SIRI	628
Berdiyev Temur Azamatovich	
ENERGETIKA TARMOG‘INING MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA TA’SIRINING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI.....	639
Saidov Mash‘al Samadovich	
OLIY TA‘LIMNING INNOVATSION MUHITIDA TA‘LIMDA BOSHQARUVINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH	653
Kabilov Baxron Davronovich	
INTEGRAL INDEKS ASOSIDA HUDUDLARNI TIPOLOGIYALASH: KLASTER TAHLILI VA VIZUALIZATSIYA USULLARI	668
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
MINTAQANING IJOBIY IMIJINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH (Xorazm viloyati misolida).....	685
Ibodullayev Dilshod Ibragimovich	
SANOATNI TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	696
Xodjayeva Feruza Komilovna	
INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA AMALIY TAHLILI (KORXONALAR MISOLIDA).....	710
Gafurova Umida Fatixovna	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA IQTISODIY JIHATLARI	721
Suyunov Jabbor Maxmudovich	

QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA IQTISODIY JIHATLARI

Suyunov Jabbor Maxmudovich

Qarshi davlat universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining respublikamiz hududlari, shu jumladan Qashqadaryo viloyati hududlarini samarali va barqaror iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish yo‘nalishlarida belgilangan vazifalar va tadqiqot doirasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasi keltirildi. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan uchrashuvi da belgilangan vazifalar, amaliy ishlar natijalari, Respublikada va Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini turmush-tarzini yaxshilash yo‘nalishida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik subyektlari, hudud, xarajat, moliyaviy holat, ijtimoiy soha, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, aholi, ishsizlik, iqtisodiy nafaol aholi, iqtisodiy faol aholi, soliq, daromad, foyda.

Аннотация

В статье представлены задачи, поставленные Президентом Республики Узбекистан в области формирования и развития эффективной и устойчивой экономики регионов нашей республики, включая регионы Кашкадарьинской области, а также результаты работы, проведенной в рамках исследования. Также в статье представлена информация о задачах, поставленных на встрече Президента Республики Узбекистан с предпринимателями, результатах практической работы и о работе, проведенной в последние годы в республике и Кашкадарьинской области по развитию малого бизнеса и частного предпринимательства, а также повышению уровня жизни населения.

Ключевые слова: хозяйствующие субъекты, территория, затраты, финансовое положение, социальная сфера, малый бизнес, частное предпринимательство, население, безработица, экономически неактивное население, экономически активное население, налог, доход, прибыль.

Abstract

This article presents the objectives set by the President of the Republic of Uzbekistan for the formation and development of an effective and sustainable economy in the regions of our country, including the regions of Kashkadarya Region, as well as the results of the research conducted within the framework of the study. The article also provides information on the objectives set at the meeting of the President of the Republic of Uzbekistan with entrepreneurs, the results of practical work, and the work carried out in recent years in the country and Kashkadarya Region to develop small businesses and private entrepreneurship, as well as improve the standard of living of the population.

Keywords: economic entities, territory, costs, financial situation, social sphere, small business, private entrepreneurship, population, unemployment, economically inactive population, economically active population, tax, income, profit.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida hududiy rivojlanish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynadi. So'nggi yillarda iqtisodiy jarayonlarning liberallasuvi, bozor mexanizmlarining kengayishi va xo'jalik yuritish shakllarining diversifikatsiyalanishi natijasida ushbu soha barqaror o'sish bosqichiga o'tdi. Ayniqsa, hududlar kesimida kichik biznes subyektlarining faoliyati ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda ichki bozorni to'ldirishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti tarkibida ham kichik biznes va tadbirkorlikning ulushi ortib bordi. Hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, mehnat resurslari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqarish an'analari ushbu yo'nalishning rivojlanishiga zamin yaratdi. Viloyatda tadbirkorlik subyektlarining ko'payishi yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga, aholi bandligining oshishiga va daromad manbalarining kengayishiga olib keldi. Shu bilan birga, kichik biznes faoliyati sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlarini jadallashtirdi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy faol aholining o'sishi va bandlik darajasining oshishi bevosita tadbirkorlik muhitining rivojlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Hududlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali ishsizlik darajasini pasaytirish, iqtisodiy nafaol qatlamni faollashtirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish imkoniyatlari kengaydi. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish faoliyatlari aholi daromadlarini barqarorlashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va iqtisodiy jihatlarini kompleks o'rganish, mavjud tendensiyalarni tahlil qilish hamda rivojlanish istiqbollari aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari O'zbekistonda tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Xususan, hunarmandchilikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ushbu sohaning bandlikni oshirish va daromad manbalarini kengaytirishdagi o'rni asoslab berilgan [1].

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mulk huquqini himoya qilish muhim omil sifatida qaralib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-son "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni

tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida bu masala keng yoritilgan [2].

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini biznes faoliyatiga keng jalb etish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son "Har bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan bo'lib, unda aholini o'zini o'zi band qilish va daromadlarini oshirish mexanizmlari ko'rsatib berilgan [3]. Bandlikni ta'minlash va mehnat bozorini rivojlantirish masalalari esa 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorda tizimli yoritilgan [4].

Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4231-son "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida batafsil bayon etilgan [5]. Ushbu hujjatda hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznesning roli alohida ta'kidlangan.

Davlat rahbarining iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid yondashuvlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham aks etgan bo'lib, unda kichik biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [6]. Shuningdek, tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, soliq yukini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash masalalari muhim yo'nalish sifatida qayd etilgan [7].

Statistik ma'lumotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari sonining ko'payishi, ularning bandlik va ishlab chiqarishdagi ulushi oshgani ushbu sohaning barqaror rivojlanayotganini tasdiqlaydi [8].

Hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda PQ-389-son "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida hududda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va aholi bandligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan [9].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari hamda iqtisodiy jihatlarini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usuli asosida amaldagi farmon va qarorlarning mazmuni o'rganildi va ularning tadbirkorlik rivojiga ta'siri baholandi. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash orqali kichik biznes subyektlari soni, bandlik darajasi va iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida turli yillar kesimidagi ko'rsatkichlar solishtirildi va o'sish tendensiyalari aniqlandi. Mantiqiy umumlashtirish usuli asosida olingan

natijalar tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqotda rasmiy statistik manbalar, ochiq ma'lumotlar bazalari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi, bu esa natijalarning ishonchligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda iqtisodiy nafaol aholi sonining o'sishi turli muammolar va murakkabliklar sababchisi bo'ladi. Hukumat bunday vaziyatning salmoqli yechimi sifatida hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, shu jumladan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasini kun tartibiga qo'ygan.

Mamlakat hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni va roli keyingi yillarda ancha o'sdi. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2000-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat YAIMga qo'shgan ulushi 31,0%ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-iyul holatida qariyb 1,6 baravar o'sgan, ya'ni 48,6%ni ko'rsatmoqda. Bu sohaning sanoatdagi ulushi tadqiqot yillarida 12,9%dan 26,0%ga, qurilishda 38,4%dan 77,1%ga, bandlikda 49,7%dan 74,1% (2023-yil 1-kvartal)a, eksportda 10,2%dan 27,6%ga va importda 22,8%dan 47,6%ga o'sgan.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) mutaxassislarining 2017-2022 yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlarni o'rganish natijasiga ko'ra xususiy biznes va kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi 29,5 foizga yetgan. Respublikamizda 2017-yildan boshlab biznesni ro'yxatga olish osonlashtirilganligi bois, natijada 2017-yilda ro'yxatga olingan tadbirkorlik subyektlari soni 229,6 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunida bu ko'rsatkich 555,9 mingtaga yetdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 2,4 barobar ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanishicha: "Tadbirkorlikni keng rivojlantirish va bu soha uchun yangi sharoitlar yaratishga barcha imkoniyatlarimizni safarbar etyapmiz. "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida o'z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so'm kreditlar ajratildi". Murojaatnomaning asl mohiyati yurtimizning hududlarida aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, ayniqsa yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, turmush tarzi sifati va darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishini ta'minlashga qaratildi.

Muhtaram Prezidentimiz tadbirkorlar bilan o'tkazgan ikkinchi yig'ilishida "hokimlar mulk huquqiga oid qarorlarni bekor qilishiga yo'l qo'yilmaydi, ilk bor xato qilgan kichik biznes vakillari jazolanmaydi, SSP tubdan o'zgaradi, QQS 12 foizga tushiriladi", "Biz Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida g'oyat muhim va hal qiluvchi bosqichga qadam qo'ymoqdamiz. Sizlarning fidokorona mehnatingiz, innovatsion fikr va yondashuvingiz bugun har qachongidan ham muhim va bu o'rinda siz barcha soha vakillariga o'rnak bo'lishingizga ishonaman", degandilar.

Mana shu yig'ilish natijasida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2017-yilda 5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 1,5 foizgacha pasaytirildi, 2017-yildagi soliq turlari 13 tadan 9 tagacha kamaytirildi, 2017-2022 yillar oralig'ida soliq tekshiruvi turlari 10 taga qisqardi, ya'ni 13 tadan 3 tagacha kamaydi. Bunda Soliq kodeksiga ko'ra, soliq organlari kameral soliq tekshiruvi; sayyor soliq tekshiruvi va

solig auditidan o'tkaziladigan bo'ldi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 2016-yilda 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, soliq tizimida olib borilgan islohotlar natijasida, Prezident topshirig'iga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvaridan QQS stavkasi 12 foizga tushirildi. Natijada xususiy biznes va kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi 29,5 foizga yetdi.

O'zbekistonda Respublikasida so'nggi yillarda hududlarda aholini turmush-tarzini yaxshilash maqsadida bir qator ijobiy, samarali ishlar olib borilmoqda. Bu jadallashgan tartibda amalga oshiriladigan ishlar samarasi aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishlariga, hunarmandchilik, kasanachilik va tadbirkorlik faoliyatining boshqa sohalarida bandligini ta'minlash orqali ularning qo'shimcha va barqaror daromad manbalari shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish yuzasidan dasturiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida aholining, ayniqsa chekka hududlardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning ma'lum bir miqdorda iqtisodiy holati yaxshilanishiga olib keladi.

2021-yil Qashqadaryo viloyatida tadbirkorlik yili deb e'lon qilindi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2021-yilda bu borada amalga oshiriladigan real (aniq) loyihalarni belgilab, hududda 10 ming xo'jalik subyekti tashkil etilishi yuzasidan topshiriqlar berdi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasidagi puxta o'ylangan loyihalar har bir shahar va qishloqning "iqtisodiy o'sish nuqtalari"ni hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Bunda Chiroqchi, Yakkabog', Qamashi, Kitob va Shahrisabz tumanlarida 20 ming gektarda intensiv bog'lar va uzumzorlarning tashkil etilishi viloyatda meva va sabzavotlarni qayta ishlash darajasini 25 foizga oshiradi. 2021-yilda xizmatlar sohasida 500 nomda jami 650 milliard so'm yangi loyiha yo'naltiriladi.

Bugungi kunda viloyatimiz tadbirkorlari tomonidan turli o'lchamdagi polietilen trubalar, profnastil, penoblok, marmar plitalar, marmar vannalar, turli o'lchamdagi polietilen trubalar, profnastil, penoblok, rangli bruschatka, quruq shpaklyovka, suvli bo'yoq (vodoemulsiya), pishiq g'isht, mikrokalsit, kanalizatsiya quvurlari va boshqa bir qancha yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Buning natijasida chetdan qurilish materiallari keltirilishi keskin kamaygan, ortiqcha vaqt sarflanmasligi va xarajatlarni keskin qisqarishiga olib kelmoqda. Viloyatda 1991-yilda 17 ta g'isht zavodi faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda yirik va kichik g'isht zavodlari soni 216 tani tashkil etmoqda.

Viloyatda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishni barqarorlashtirib borish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi daromadlarini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, talab va taklifning mutanosibligini yo'lga qo'yishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va yuritishda xarajatlar kamaytirilishining samaradorligi hamda mazkur soha subyektlari huquqlarini himoya qilish yuzasidan katta imtiyozlar yaratilganligi tadbirkorlik subyektlari faoliyati va moliyaviy holatini yaxshilashga ko'maklashmoqda. Viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 2016-2020 yillarda iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sohaning ulushi sanoatda 2016-yilda 50654, 5 mlrd. so'mdan 2020-yilda 100796, 9

mlrd.so'mga, ya'ni 1,98 barobarga oshgan. Bu ko'rsatkich mos ravishda qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,02 barobarga, savdoda 2,14 oshirilgan.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 2020-yilda 2016-yilga nisbatan 2,8 barobarga, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2,52 barobarga, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 2,6, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 1,91 barobarga, aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 1,77 barobarga oshirildi.

Vohamizning o'simliklar va hayvonot dunyosi, dehqonchilik tarkibi ham o'ziga xos xususiyatga ega. Shahrisabz va Kitobning sharob-bop va mayizbop uzum navlari, lag'monning husayni uzumlari, Ko'chkak anjirlari, cho'lning asaldan shirin qovuntarvuzlari, tog'ning qizil kartoshkasi, Koson sabzilarining dovrug'i uzoqlarga ketgan. Vohaning keng qir va adirliklarida qadimdan chorvachilik rivojlanib kelgan va bugungi kunga kelib respublikamizdagi mavjud qo'y va echkilarning 21,0 foizi Qashqadaryo viloyatida yetishtirilmogda.

Viloyatimiz respublikada eng ko'p don va paxta yetkazib beradigan hudud hisoblanib, O'zbekistonda tayyorlanadigan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 10,2%i, shu jumladan, paxtaning 11,8%i, g'allaning 12%, qorako'l terining 19%i viloyat hissasiga to'g'ri keladi.

Prezidentimiz tashrifida viloyatda yer resurslaridan samarali foydalanilmayotganligi ta'kidlangach, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-martdagi "Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqqan yerlarni 2021-2023 yillarda o'zlashtirish va hududlarni eksportbop mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 154-son Qarori asosida Qashqadaryo viloyatidagi yer maydonlaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari belgilandi.

Bundan tashqari hududdagi irrigatsiya va melioratsiya holati, jumladan, noto'g'ri sug'orish oqibatida yerlarning 45 foizi sho'rlanganligi, bu borada G'uzor, Muborak, Koson va Nishon tumanlarida bu yo'nalishda ahvol juda og'irligi, 38 ming gektar maydon foydalanishdan chiqib ketgan, tomchilatib sug'orish jami sug'oriladigan maydonning bor-yo'g'i 2,4 foizida joriy qilinganligi davlatimiz rahbari tomonidan keskin tanqid qilindi. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-fevraldagi "2021-yilda Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya va melioratsiya ishlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 94-sonli Qarori asosida 2021-yilda Qashqadaryo viloyatida O'zbekiston Respublikasining respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda melioratsiya obyektlarini ta'mirlash-tiklash ishlarining, suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida xususiy sektorga berish ishlarining manzilli ro'yxati; suv xo'jaligi obyektlarida suv resurslari sarfini «onlayn» rejimida nazorat qilish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalari joriy etish ko'rsatkichlari; suv iste'molchilari uyushmalari, klasterlar hamda fermer xo'jaliklarining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash-tiklash ishlarining, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishning, suv xo'jaligi tizimidagi nasos stansiyalari agregatlari va elektr dvigatellarini yangisiga

almashtirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi. Belgilangan vazifalar mas'ul xodimlar tomonidan jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-389-son Qarori talablariga muvofiq, quyidagilar Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib belgilandi: birinchidan, viloyatda 2024-2025 yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmi tegishli - 5,8 foizga va 6 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi - 8 foizga va 8,5 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi - 4,5 foizga va 5 foizga, bozor xizmatlari hajmi - 14 foizga va 15 foizga o'sishini ta'minlash; ikkinchidan, 2024-yilda 550 ming va 2025-yilda 600 ming nafar aholining bandligini ta'minlash; uchinchidan, 2024-yilda respublika byudjetidan 100 milliard so'm ajratish hisobiga 90 kilometr, 2024-2026 yillarda xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar mablag'lari, shu jumladan Xitoy Xalq Respublikasining imtiyozli kreditlari hisobidan 316 kilometr, jami 406 kilometr kanallarni betonlashtirish. Shuningdek, 2024-2030 yillarda 11 ming kilometrdan ziyod tuproq o'zanli xo'jaliklararo irrigatsiya tarmoqlarini to'liq betonlashtirish yoki ularni lotok tizimlari va yopiq quvurlarga o'tkazish; 2024-2025-yillarda viloyatdagi sug'oriladigan yer maydonlarini lazerli tekislash va buning natijasida, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda unumdorlikni 20 foizga oshirish; to'rtinchidan, 2024-yilda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan 220 milliard so'm ajratish hamda 2024-2026 yillarda xalqaro moliya tashkilotlaridan 122,5 million AQSH dollarini jalb qilish hisobiga jami 364 kilometr, shundan 189 kilometr umumiy foydalanishdagi va 175 kilometr ichki avtomobil yo'llarini ta'mirlash; beshinchidan, 2024-yilda respublika byudjetidan 52 milliard so'm ajratish hamda xalqaro moliya tashkilotlaridan 31 million AQSH dollarini jalb qilish hisobiga jami 321 kilometr ichimlik suv tarmoqlari va 18 ta suv inshootini qurish orqali ichimlik suv ta'minoti qamrovini 73,6 foizga yetkazish; oltinchidan, 2024-yilni Qashqadaryo viloyatida «Maktab ta'limi va tibbiyot yili» deb e'lon qilish hamda bu borada zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish. Bunda, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 390 milliard so'm ajratish hisobiga 64 ta umumta'lim maktabida qurilish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish; yettinchidan, turizm yo'nalishida rejalashtirilayotgan loyihalarni moliyalashtirish uchun viloyatga 500 million AQSH dollari miqdoridagi investitsiya mablag'larini jalb qilish hisobiga 4 million nafar mahalliy hamda 500 ming nafar xorijiy turist tashrifini tashkil qilish. Bunda, 2024-yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan 50 million AQSH dollari hamda 2024-2025 yillarda jami 500 million AQSH dollari ekvivalentida markazlashgan va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

2026-yilda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini yanada yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Asosiy e'tibor moliyaviy yordam, raqamlashtirish va yangi tizimli

yondashuvlarga qaratilgan. Quyida 2026-yilga mo'ljallangan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari keltirilgan:

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va investitsiyalar. Yirik mablag' ajratilishi: Mahallalarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 2026-yilda 8 mlrd AQSH dollar miqdorida mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan. Loyihalarni moliyalashtirish: 2026-2027-yillarda 5 mingta tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish uchun 4 trillion so'mlik moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etiladi. Imtiyozli kreditlar: Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun mahallabay ishlash tizimi doirasida imtiyozli kreditlar va moliyaviy ko'mak davom ettiriladi.

2. Yangi tizim va yengilliklar. «Biznes hamroh» loyihasi: 2026-yil 1-martdan boshlab tadbirkorlarni yagona oyna prinsipi asosida qo'llab-quvvatlaydigan yangi tizim - «Biznes hamroh» loyihasi ishga tushiriladi. Hisobotlarni qisqartirish: 2026-yil 1-yanvardan boshlab barcha tadbirkorlar uchun hisobotlarni ixtiyoriy asosda topshirish tizimi joriy etiladi (majburiy hisobotlar kamaytiriladi). Raqamli integratsiya: «Tadbirkor» axborot tizimi orqali davlat organlari va tashkilotlarning ma'lumotlar bazalari o'zaro integratsiya qilinib, tadbirkorlar uchun ma'muriy to'siqlar kamaytiriladi.

3. Startaplar va mahallabay ishlash. Startaplarni qo'llab-quvvatlash: 2026-yil 11-fevraldagi PQ-59-sonli qarorga muvofiq, startaplarning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari kuchaytiriladi. Mahalla loyihasi: Tijorat banklari tomonidan mahallalarda yangi ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan «mahalla loyihasi» doirasida tadbirkorlarga ko'mak beriladi.

4. Xotin-qizlar tadbirkorligi. Xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar va grantlar ajratish orqali ularning biznesdagi ishtirokini kengaytirish davom ettiriladi. Eslatma: Bu ma'lumotlar 2026-yil uchun rejalashtirilgan va qabul qilingan hujjatlar asosida shakllantirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylandi. So'nggi yillarda ushbu sohaning YAIMdagi ulushi, bandlikdagi hissasi va ishlab chiqarish hajmidagi roli barqaror oshdi. Tadbirkorlik subyektlari sonining ko'payishi yangi ish o'rinlari yaratilishiga, aholi daromadlarining kengayishiga va hududiy iqtisodiy faollikning kuchayishiga olib keldi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida kichik biznesning o'sishi ichki bozorni to'ldirish va import o'rnini bosishda muhim natijalar berdi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda infratuzilma yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi kichik biznes rivojiga ta'sir qilayotgan omillar sifatida aniqlandi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va iqtisodiy nafaol aholini tadbirkorlikka jalb etish masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini kengaytirish orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun barqaror sharoit yaratish; ikkinchidan, kichik

biznes uchun moliyaviy resurslarga kirishni soddalashtirish va uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish; uchinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish; to'rtinchidan, aholini kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish orqali yangi biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash; beshinchidan, hududiy resurslardan samarali foydalanish asosida ixtisoslashgan kichik biznes yo'nalishlarini rivojlantirish.

Ushbu choralar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi rolini yanada mustahkamlashga, bandlikni oshirishga va aholi farovonligini barqaror ravishda yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr PF-5242-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/3416134>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5780-son 2019-yil 13-avgust "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/4473481>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3777-son 2018-yil 7-iyun "Har bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/3772869>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3856-son 2018-yil 14-iyul "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/3824637>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-mart PQ-4231-son "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/4231026>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. Manba: https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti: yangi tashabbuslar, qulaylik va yengilliklar. 2022 yil 22 avgust. Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/5449>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. Manba: <https://stat.uz/uz/>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabr PQ-389-son "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/6693577>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**